

KLASTERLAR VA MCHJ LAR UCHUN PAXTA XOM ASHYOSINI NAZORAT QILUVCHI LABORATORIYALARIDA SIFATNI NAZORAT QILISH**Solijonova Nazira**

Andijon mashinasozlik instituti
“Avtomobilsozlik” fakulteti “MSMSM”
yo‘nalishi 4 bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Mamasharipov A.**

2018 yilda O‘zbekistonda milliy paxtachilik sohasida klasterlash siyosati boshlandi. Amaliy tadqiqotlarga asoslanib, ushbu maqola yangi paydo bo‘lgan klasterlar ostida paxta etishtirishdagi so‘nggi o‘zgarishlarni o‘rganadi. Bizning xulosalarimiz sanoat siyosati adabiyotlari va O‘zbekiston amaliyotidagi klasterlarning ma‘nosi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ko‘rsatadi.

Paxta yetishtirish ustidan nazorat davlatdan xususiy korxonalariga (klasterlarga) o‘tdi. Ushbu transformatsiya monopsoniya sharoitlarini davom ettirdi, bunda fermerlar muqobil marketing kanallariga ega emaslar. Kirish bozorlari davlat idoralari bilan aloqasi uzilgan, biroq fermer xo‘jaliklari xususiy mahsulot bozorlariga kirish imkoniga ega emas, chunki klasterlar ma‘lumotlardan foydalanishni nazorat qiladi. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, majburiy va bolalar mehnati kamaygan.

Umuman olganda, klaster islohoti sanoat siyosati tamoyillarini deyarli hisobga olmadi. Masalan, fermerlar o‘rtasida klasterlar tashkil etishda shaffoflik yo‘q edi. Keng miqyosda klasterlarni tezda tashkil etish o‘rniga, pastdan yuqoriga tashabbuslarni amalga oshirish imkonini beruvchi institutsional muhitni ilgari surish kerak. Umuman olganda, fermerlar nuqtai nazaridan, so‘nggi islohot qadamlari eng yaxshi holatda mo‘tadil o‘zgarishlarga olib keldi, shu bilan birga klasterlar paxta sohasida ustun rol o‘ynay boshladi [1].

Sinov - bu mahsulot yoki tizim yoki uning komponent(lar)ni belgilangan talablarga javob beradimi yoki yo‘qligini aniqlash maqsadida baholash jarayoni. Sinov - bu haqiqiy talablarga zid bo‘lgan har qanday bo‘shliqlar, xatolar yoki etishmayotgan talablarni aniqlash uchun tizimni amalga oshirish.

To‘qimachilik mahsulotlarini sinovdan o‘tkazish qimmat ishdir. Laboratoriya tashkil etilishi va bir qator sinov uskunalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. O‘qitilgan tezkor xodimlarni ishga olish kerak, ularning ish haqi nafaqat natijalar talab qilinganda emas, balki yil davomida to‘lanishi kerak. Bundan tashqari, bu xarajatlarning barchasi samarasiz va shuning uchun mahsulotning yakuniy tannarxiga qo‘shiladi. Shuning uchun, yakuniy mahsulotga biron bir foyda qo‘shmasdan sinovdan o‘tmaslik muhimdir. Ishlab chiqarish tsiklida mahsulotni yaxshilash yoki sifatsiz tovarlarning tsiklda yanada rivojlanishini oldini olish uchun sinov o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan bir qator nuqtalar mavjud [1].

Prezidentning 2023-yil 26-yanvardagi “Paxta xomashyosi ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-23- son qarori qabul qilindi.

2023-yil hosilidan boshlab har yili 1-oktabrga qadar paxta-to‘qimachilik klasterlari fermer xo‘jaliklari bilan kelgusi yil hosili uchun (2023-yil hosili uchun 2023-yil 1-fevralgacha) paxta xomashyosi yetishtirish bo‘yicha fyuchers shartnomalarini tuzadi. Qishloq xo‘jaligi vazirligi Nyu-York fond birjasida paxta fyucherslarining o‘rtacha oylik kotirovkalarini o‘zining rasmiy saytida e‘lon qiladi [2].

Shu bilan birga, paxta xomashyosini ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari soliq organlarining axborot tizimida ro'yxatga olinadi va "Agroplatform" axborot tizimiga integratsiya qilinadi. Mahalliy hokimliklar tomonidan paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish, ularning muassislarini yig'ilish va boshqa tadbirlarga taklif etish, fermerlar bilan munosabatlariga ta'sir o'tkazish qat'iyan man etiladi.

Ekinlarni joylashtirish, yer va suv resurslaridan foydalanishda qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan cheklovlar o'rnatgan mansabdor shaxslar javobgarlikka tortiladi. 2023-yildan boshlab xorijdan olib kelingan lazer moslamasi bilan avtomatlashtirilgan tekislash agregatlarini xarid qilgan ishlab chiqaruvchilarga tekislash agregatlari narxining 30 foizi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Shuningdek, paxta xomashyosi yetishtiriladigan maydonlarni nasos bilan sug'orish uchun sarflanadigan energiya xarajatlarining 50 foizi Davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. 2025-yilning 1-yanvariga qadar import qilinadigan mineral o'g'itlarga "nol" bojxona to'lovi stavkasi qo'llaniladi (TN TIF kodlari 3105 59 000 0, 3105 40 000 0, 3104 30 000 0, 3105 30 000002 va 028005).

Sanoat klasteri faoliyati qo'shimcha qiymat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, yetkazib beruvchilar, infratuzilma ob'yektlari, ilmiy laboratoriyalar va institutlarni birlashtiradi. Klasterning samaradorligi uchta asosiy tarmoq: biznes-hukumat-jamoatchilik, shuningdek, ilg'or jahon tajribasini hisobga olgan holda vakolatlari, bilimlari va biznes hamkorligi uyg'unligidan olingan ijobiy sinergetik ta'sirdan mohirona foydalanishga bog'liq.

Tayyorlav punktida paxtani qabul qilishda qabul qilinadigan maxsulotning sifatini nazorat qilish muhim o'rin tutadi. Uning aniqligiga nafaqat paxta zavodining daromadi, balki g'aramning to'g'ri jamlanishiga ham bo'g'liq bo'lib, paxtaning ishonchli saqlanishini ta'minlaydi. Namunalar tanlash paxta sifatini nazorat etishning dastlabki va eng mas'ul jarayoni hisoblanadi. Paxta tayyorlav punktida respublika standarti 643-95 "Paxta. Namunani tanlash usullari" bo'yicha olib boriladi. Shuningdek, namunani tanlashga paxtani tushirish joylariga xam ruxsat etiladi. Namuna tanlash uchun odatda, doimiy usti yopiq ayvon jihozlanib, unda paxta namligiva iflosliginin aniqlash uchun paxta namunalari solingan bankalarni quyosh nuri, chang va yog'ingarchilikdan saqlaydigan joyda tanlanadi. Paxtaning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun keltirilgan paxta to'dasining turli joylaridagi istalgan nuqtalaridan olingan namuna turkumi tuziladi [2].

To'da deganda bitta seleksion sanoat navidan olingan sifati bo'yicha bir xil bo'lgan bitta transport nakladnoyi bilan rasmiylashtirilgan paxta miqdori tushuniladi. Har bir keltirilgan to'da nuqtalaridan namunalarni tayyorlov punktining klassifikatori paxta topshiruvchi ishtirokida paxta tortilguncha qo'lda tanlab oladi. Nuqtalardan namuna tanlashga paxta topshirilgan joylarda ham ruxsat etiladi. Keltirilgan paxta to'dasining har ikki tonnasidan turli chuqurlikdagi kamida uch joydan har biri 100-150 g miqdorida namuna tanlab olinadi.

Katta bankalar laboratoriyada yoki bo'linma isitish asboblari uzoq, maxsus joyda saqlanish kerak. Sig'imi kamida 3-4 kg bo'lgan o'rtacha kunlik namuna butun qabul qilish kuni mobaynida to'planadi va undan kuniga bir bor namligi hamda iflosligi bo'yicha laboratoriya tahlili o'tkaziladi. Tahlillar har bir xo'jalik, bo'linma, brigade bo'yicha jamlanadigan to'dalar, ya'ni terim turlari, seleksion va boshqa belgilar bo'yicha olib boriladi [3].

Qabul qilingan paxtani iflosligi va namligi bo'yicha taxlil qilishdan oldin har bir katta bankadan kichigiga 400-500 g. dan namuna olinib, uni bir sutka davomida namlikni

nazorat tekshiruvchi uchun saqlanadi. Namunani sutka davomida saqlash vaqti namunaning nazorat qilinadigan qismi kichik kichik banka (namlikni aniqlash uchun) va qop yoki bankaga (ifloslikni aniqlash uchun) joylangan paytdan hisoblanadi. Namlik va ifloslikning kunlik tahlillaridan keyingi namuna qoldig`ini sifat hamda iflosligini nazorat tekshiruvchi uchun qoldiriladi va qog`oz qoplarda saqlanadi. Namunali kichik bankani imzolab, sana, xo`jalik, brigada, seleksion va sanoat navlari, jamlanadigan to`dalar ko`rsatilgan yorliq yopishtirib qo`yiladi. Bir sutkadan keyin nazorat namunalari tegishli to`dalarga qo`shiladi.

Qabul qilingan paxtaning navi, namligi va ifloslanganligini aniqlash uchun namunalar tanlash va tahlillar 643-95, 592-92, 593-92, 644-95 (1, 2, 3, 4) raqamli respublika standartlari bo`yicha standart namunalarda tekshirilgan yoki

<<O`zDavStandart>> ning metrologik xizmati attestatsiyasidan o`tkazilgan asboblarda olib boriladi. Namunalar tanlash, laborantlar ishi, laboratoriya asbob-uskunalarini paxta zavodining TNB boshlig`i nazorat qiladi.

Tayyorlov punktining laboratoriyasi quyidagi asboblarga ega bo`lishi kerak: O`z-7 m shkafi, USX-1 va VXS yoki VXS-M1 namlikni aniqlash asbobi, paxta

ifloslanganligini aniqlash uchun LKM qurilmasi, LPS-4 tola navini aniqlash asbobi, PPV jin tola tozalagich, paxta uchun CXL-3 laboratoriya quritgichi, mayda qadoq toshli texnik tarozilar, mikroskop, mikroskopga P-2 nurni qutblantiruvchi moslama eksikator, namunalar olish uchun bankalar (katta va kichik), LPS-4 asbobida nazorat tekshiruvlarining ruxsat etiladigan farqlari paxta tolasi bo`yicha 2,5 foizdan oshmasligi kerak. Agar bu ajrimlar orasidagi farqlar ruxsat etiladigan miqdordan oshib ketsa, unda ikkita qo`shimcha namuna LPS-4 da o`lchanadi va o`lchov natijalari bo`yicha o`rtacha qiymat hisoblanadi [4,5].

Ikkita namuna tahlilining natijalari orasidagi farq, ifloslikni nazorat taxlilida ifloslanganlik 10% gacha bo`lganda- 0,6% (mut.)dan oshmasligi, 10 % dan yuqori bo`lgan esa 1,0%(mut.)dan oshmasligi kerak. Ikki namunani sinash natijalari orasidagi farqlar taxlillarida paxta namligi 10,0% bo`lganda 0,5%dan oshmasligi va namligi 10%dan ko`proq bo`lganda 5,0%(nisb.) dan oshmasligi lozim. Agar dastlabki va nazorat taxlillarining natijalari orasidagi farqlar yuqorida ko`rsatilgan chegaralardan chiqmasa, unda dastlabki to`g`ri hisoblanadi [5].

Namunalar tanlash to`g`riligini tekshirish, klassifikatorlar va laboratoriya tomonidan qabul qilinadigan paxtaning navi, ifloslanishi hamda namligini aniqlash uchun har kunlik laboratoriya taxlillari belgilanadi. Shu maqsadda qabul qilishdan keying kun tayyorlav punktida jamlanayotgan har bir to`dadan klassifikator ishtirokidabir kunda qabul qilingan paxtadan birlashgan paxta namunalarini tanlanadi. Unga paxtaning seleksion va sanoat navlari, terim turi, namuna olingan to`da yoki g`aram nomeri ko`rsatilgan yorliq tirkaladi. Shundan so`ng mazkur namunalar bo`yicha laboratoriyada paxtaning namligi, iflosligi va navi asboblar yordamida aniqlanadi. Taxlil natijalari klassifikator uchun majburiydir. Ular bo`yicha klassifikator paxtani to`g`ri qabul qilish va jamlashni ta`minlash yuzasidan choralar paxtani to`g`ri qabul qilish va jamlashni ta`minlash choralar ko`rishi shart. To`dani jamlash ma`lumotlari bo`yicha iflosligi va namligi ko`rsatgichlari, qabul qilishdagi ma`lumotlarga to`g`ri kelishi kerak yoki yuqorida ko`rsatilgan ruxsat etiladigan chegaralardaog`ishlarga ega bo`lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxtani dastlabki qayta ishlash bo'yicha ma'lumotnoma. 1-jild, T., "Mehnat", 1994.
2. Paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi (PDKI 02-97). T., "Mehnat", 1997.
3. P.R Ismatullayev, SH.A Kodirova va A.A A'zamov "Metrologiya asoslari" o'quv qo'llanma. Toshkent-2007 y.
4. <https://www.standart.uz/news/view=379>.